

**SURXONDARYO VILOYATIDA ETNOTURIZMINI AHAMIYATI VA VILOYATDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISTIQBOLLI LOYIHALAR**

**Xolbekova O‘g‘iloy Turayevna,**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti.*

[Javohirrustamov520@gmail.com](mailto:Javohirrustamov520@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15170614>

**Annotatsiya:** Mamlakatimizning jabubiy nuqtasida joylashgan Surxon xalqining sport turizmni rivojlantirishdagi imkoniyatlari qolaversa nihoyatda ulkan tarix va boy qadriyatlarga, yuksak ma’naviyatga beshik bo‘lgan mintaqa ekanligini ochib berish. Viloyatda amalga oshirilgan ishlar va kelgusi yillardagi rejalar haqida qisqacha tuxtalib o‘tganmiz.

**Kalit so‘zlari:** Milliy qadriyatlar, etno turizm, sport turizm, chanqavuz, kurash musobaqalari, istiqbolli loyihalar, “Anor” sayli va “Hunarmandlar markazi”

Mustaqillikdan so‘ng yurtimizda turizmni hamma sohalarida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shuning uchun turizmni rivojlantirish O‘zbekistonning dolzarb masalalaridandir. Mustaqilligimiz tufayli o‘tmishimiz, tariximiz xolisona o‘rganish, manaviyatimiz sharchashmalalarini dunyo aholisi orasida keng targ‘ib qilish, azaliy qadriyatlarimizni tiklash kabi imkoniyatlar yaratildi. Ayniqsa, Surxondaryo viloyatining tarixiy obidalaridan tortib milliy qadriyat va uruf odatlar uruf odatlar qayta tiklandi. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga ustuvor tarmoq sifatida e’tibor qaratilayotganligi va bu yo‘nalishda so‘nggi yillarda jadal sur‘atlarda o‘sish kuzatilayotganligi Surxondaryo viloyatida mavjud salohiyatdan samarali foydalanishni dolzarb vazifaga aylantirdi. Viloyatning o‘ziga xos me’morchilik ob’ektlari, diniy ziyoratgohlari, jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan milliy urf-odatlari, oshxonasi hamda tog‘oldi hududlaridagi ko‘plab dam olish maskanlari, bolalar oromgohlari, davolash-sog‘lomlashtirish maskanlarining mavjudligi va turistik-rekreatsion faoliyatni rivojlantirishdagi ulkan salohiyatdan unumli foydalanishda tashkiliy iqtisodiy mexanizmni takomillashtirish, asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha ijtimoiy va transport infratuzilmalarini barpo etish, axborot tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, bozor infratuzilmasini jumladan, marketing xizmati, tijorat axborot tizimlarini tashkil etishga asosiy e’tibor qaratilgan. [1-ilova1-8b].

Vohaning turizm salohiyati juda yuqori hududlardan biridir. Bu yerda azaldan xalqining mardligi va jasurligi hamda etnografik jihatdan musiqiy asboblari va san`at dunyosi o‘ziga xosdir. Xususan viloyatda etnoturizm sohalarini rivojlantrish imkoniyatlari yetarli.. So‘ngi yillarda Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning viloyatga alohida qaratgan e’tiborlaridan so‘ng juda ko‘plab salmoqli ishlar qilindi.

# “O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK ASOSLARI”

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi

Surxondaryo vohasining turizm sohasida aynan Etnoturizmini yada rivojlantirish ko`plab yirik festivallar va kurash musobaqalari manashu yerda tashkil etilsa, viloyatning turistik salohiyati yanada oshardi. Vohada etnoturizmi tashkil etish masalalari va imkoniyatlari to`g`risida qisqacha ma`lumot va fikrlar bayon etilgan.

Surxon vohasi aholisi turmush-tarzini o`rganish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar vohaning alohida etnografik makon ekanligidan dalolat beradi.

Surxon vohasi hududi ilk davlatchilik an`analariga ham poydevor bo`lgan makon sanaladi. Surxon vohasi aholisining musiqa san`ati va musiqa cholg`ulari ko`p ming yillik tarixga ega. Musiqa asboblari o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ularni puflama, torli, urma-zarbli cholg`u turlariga bo`linishi mumkin. Musiqiy asboblari, bir tomondan, moddiy ashyo bo`lsa, ikkinchi tomondan, ma`naviy boylik sanaladi. Estetik ehtiyoj yuzasidan tayyorlangan cholg`u asboblari (do`mbira, surnay,nay, dutor,chanqovuz, doira va boshqalar) xalq qo`shiqdari, kuylari va dostonlari ijrosida keng qo`llangan.

Vohada keng taralgan cholg`u asboblari biri chanqovuz. Chanqovuz-torli - urma yoki tilsimon chertim asbobi. Ayollar tomonidan ko`proq chalingan. Ba`zan erkaklar ham chalgan. O`tgan asrning ikkinchi yarmigacha chanqovuzni temirli va suyakli turlari bo`lgan. Suyakli chanqovuz tuya qovurg`asidan yasaladi, uning o`rtasidan tilcha kesiladi va ip bog`lanadi. Chalish jarayonida ipni tortish orqali tilcha to`lqinlantirilib tovush hosil qilinadi. Yog`ochli chanqovuz yong`oq, tut va archa daraxtidan yasaladi. Bu musiqiy asbob o`zidan juda yoqimli ovoz taratib hammani hayratda qoldirib kelmoqda [2.196-200 b]. Voha asrlar o`sha milliy kiyim, musiqiy asboblari va og`zaki ijodidan tashqari xalqning qadimiy o`yinlari ham o`zgacha ahamiyat kasb etadi. Biz bilamizki, xalq o`yinlari madaniy hayotning ajralmas qismi ekanligi ma`lum. O`zbek xalqining an`anaviy o`yinlari uzoq tarixga ega, ular ibtidoiy jamoa davridan shakllangan. Ayniqsa, Surxon vohasining o`yinlari yosh avlodning yetuk, polvon, mard va jasur bo`lib ulg`ayishda alohida o`rin tutadi. Bu o`yinlar asrlar osha avloddan-avlodga o`tib kelmoqda. Har bir xalq o`yinidan ko`zlangan maqsad o`sib kelayotgan yosh avlodni guruh bilan ishlash salohiyatini oshirishga qaratilgan [3. 173-186 b]. Surxon zaminida azaldan chapani va mard, samimiy insonlar, yelkasi yer ko`rmagan polvonlar yurti bo`lib kelgan. O`zbek kurashining vatani, makoni ham aslida Surxon vohasidir. Hammamiz yaxshi bilamizki, mana shu kurash musobaqalarida “halol” degan so`z eng oliy baho sifatida yangraydi. Shaxsan menga bu ibora bamisoli butun xalqimiz, jumladan Surxon eliga mansub eng ulug` fazilatlarni ifoda etayotgandek bo`lib tuyuladi. Darhaqiqat, halolliqi, poklikni yuksak qadriyat sifatida yuragida saqlaydigan Surxonliklar sport sohasida ham doimo birinchi safda bo`lib kelmoqda. Surxon vohasining bu kabi

sifatlari faqat o‘g‘il bolalarga hos bo‘lib qolmasdan o‘lkaning har bir ayol, qizida ham shu hislatlar mavjud.

Milliy kurash Surxonliklarning qon-qoniga singib ketgan qadryat sifatida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelmoqda. Chunki unda xalqimizning halolligi, mardligi, o‘ziga xos oriyati, kerak bo‘lsa vatanparvarligi o‘z aksini topadi. Har ikki yilda bir marta Surxondaryoda Al-Hakim at-Termiziyning xotirasiga o‘tkazilib, kelinayotgan xalqaro turnirning nufuzida jahon miqyosida yildan-yilga ortib ishtirokchilari safi kengayib borayotgani quvonarlidir. Chunki bu orqali ko‘plab yosh polvonlar kashf etilib, milliy sportimiz dovrug‘i jahon uzra keng yoyilmoqda. Mustaqillik tufayli milliy kurashning qayta tiklanishida Surxon vohasining alohida o‘rni bor. Al-Hakim at-Termiziy kabi allomalr ruhi madadkor bo‘lgan Surxon vohasining mashhur polvonlari qadim-qadimdan o‘z xalqi, yurti, ovuli uchun kurash maydonlariga chiqib, halollik, mardlik, jasurlik, va’fodorlik, sevgi-muhabbat uchun o‘z kuchlarini namoyon qilganlar [4. 81-84 b].

Ko‘rib turganimizdek birgina sport musobaqalarida vohaga bo‘lgan e’tiborni naqadar yuksak ekanligi ma’lum. Bu esa sport turizmni keng rivojlantirish istiqbolari mavjudligini bildiradi. yildan-yilga viloyatga tashrif buyuradigan turistlarning soni oshmoqda, ayniqsa qo‘shni respublikalarning salmog‘i ancha yuqori.

Viloyatda 2021 va 2022 yilda Turizmni xizmatlarini yaxshilash uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar va kelgusi yillardagi o‘zgarishlar to‘g‘risida qisqacha malumot berib o‘tamiz. Ular quydagicha; Mehmonxonalar soni 49 ta, uy mehmonxonalar soni 2021 – yilda 100 tadan 2022- yilga kelib 141 ta ga yetdi. Yil davomida uy mehmonxonalar 41 taga ko‘paydi.

Bundan tashqari, xostellar soni 5 taga ko‘payib, jami 9 taga yetdi. Sanatoriya va davolash muassalarining soni 50 ta 2055 ta o‘ringa mo‘ljallangan. Joriy yilning yanvar-dekabr oylari holatiga ko‘ra turizm maskanlari va mehmonxonalarida 200 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi.

2022-yilda dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida Surxondaryoga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar soni 100 ming nafar, turizm xizmatlari eksport hajmi 3,0 mln. AQSh dollari, mahalliy sayyohlarning tashrif soni 1 mln. nafarga yetkazish ishlari olib borilmoqda. Viloyatda arxeologik, eko, agro, ziyorat, tibbiyot, gastronomik, ekstremal turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. Shu bois, turistlarni keng jalb qilish uchun sharoitlar yaratish maqsadida 2022-2026 yillarda viloyatning Sariosiyo tumanida “Sangardak”, Sherobod tumanida “Chorbog‘”, Oltinsoy tumanida “Xo‘jaipok”, va Boysun tumanida “Omonxona” hamda “Sayrob” turizm qishlog‘i tashkil etiladi.

2022 yil may oyida yapon olimi Kato kyudzoning 100 yillik yubileyini keng nishonlash va xalqaro konferensiya o‘tkazishilgan undan tashqari “Boysun bahori” an’anaviy xalqaro folklor festivaliga, hamda “Anor sayli” va “Uzum sayli” festivallariga 20 ming nafardan ortiq turistlar, shundan, 1 ming nafardan ziyod xorijiy turistlar kelishi va shu bilan birga festivallari o‘tkazish davomida mahalliy brend mahsulot va suvenirlari savdosi kengayishi kutilmoqda.

Jarqo‘rg‘on tumanida tashkil etilgan “Hunarmandlar markazi” da 2022 yilda “Surxoncha milliy liboslari galereyasi” tashkil etiladi [5. 1-2 b]. Bundan keyingi davrlarda xorijiy mamlakatlarda xalqaro turizm ko‘rgazma va yarmarkalarda milliy stend bilan munosib ishtirok etish choralari ko‘riladi va viloyatimizga xorijiy sayyohlar oqimi oshiriladi. O‘ylaymizki shu va shunga o‘xshash istiqbolli ishlar kelajakda o‘z samarasini ko‘rsatadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Фармонлари, Қарорлари ва нутқлари ва Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 2020йил 27 майдаги “Сурхондарё вилоятида туризм салоҳиятидан янада самарали фойдаланиш ва уни ривожлантириш бўйича қўшимча чора тадбирлар тўғрисида”ги 332- сон қарори.
2. Тухлиев И.С., Ҳайитбоев Р., Сафаров Б.Ш., Турсунова Г. Туризм асослари. Дарслик. – Тошкент. 2014. 330-б.
3. Тухлиев И. С. Туризм асослари. Услубий қўланма- Самарқанд СамИСИ, 2008
4. Ҳ. Абдуназаров, М. Ҳ. Умарова, “Сурхондарё географияси” Оқув-услубий мажуа Термиз, 2016 йил
5. С.Н. Турсунов, Т.Р. Пардаев, Н. С. Махмадиёрова Сурхондарё этнографик макон Тошкент «Академнашр» 2012 йил
6. С.Н. Турсунов, Т.Р. Пардаев, А. Қоърбонов, Н. Турсунов Сурхондарё этнографияси «Ўзбекистон миллий кутубхонаси» нашриёти Тошкент 2006 йил.
7. М. Жаборов Ўзбек халқи этнографияси Тошкент «Ўқитувчи» 1994 й.
8. Файзуллаева М-Х- Узбек таомлари билан боғлиқ анъаналар (Сурхон воҳаси мисолида). - Тошкент, 2010. - 158 б.
9. Узбек халқ оғизаки ижодиёти. - Тошкент, 1990.
10. Ўзбекистан Миллий энциклопедияси. - Тошкент: Комуслар Бош таҳририяти, 2001 - 2006.
11. С.Турсунов, Т. Пардаев, О.Богимкулов “Ўзбек миллий кураши тарихи на анъаналари” Термиз: “SURXON NASHR ” нашриёти, 2015. 204 б.
12. Surxondaryo viloyat turizm va sport bosh boshqarmasidan olingan malumotlar 2020-2022 yil.